

“KAMPIRLAR SIM QOQDI” HIKOYASIDAGI KAMPIRLARNING FIDOKORLIGI VA QAHRAMONLIK DARAJASI

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

Nukus davlat pedagogika instituti o’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi talabasi.

pardaboyevaadiba@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimizning mehnatga bo‘lgan muhabbatni, har bir ishda ma‘suliyat bilan yondashmoqlik kerakligi hamda og‘ir kunlarda ham birgalikda harakat qilishga tayyorligi, hatto kampirlar misolida qahramonlik darajasidagi fidoyilikni ko‘rsatib bergen desak, adashmaymiz. Inson nimadirni hohlasa, yoki unga tomon ma‘suliyat bilan yondashib, harakat qilsa, albatta mehnatiga yarasha javob olishi kampirlar obrazi orqali ko‘rsatib berilgan. Aslida, mehnat qilmoqlik yosh tanlamasligi, ilg‘orlik va talabchanlik ortidan juda ko‘p qahramonliklarga erishish mumkinligi kampirlarning mehnatlari ortidan eshitgan yutuqlari va raisning Toshkentga “sim qoqish”i orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: Kampirlar, ipak qurti, rais, paxta, urush, turmush, mehnat, zveno, qahramonlik, fidoyilik, ayollar.

УРОВЕНЬ САМООТВЕРЖЕННОСТИ И ГЕРОИЗМА СТАРУХ В РАССКАЗЕ «СТАРУХИ ВОТКНУЛИ ПРОВОЛОКУ»

Пардаюева Адиба Шухрат кизи

Студент по направлению Узбекский язык и литература Нукусского государственного педагогического института.

pardaboyevaadiba@gmail.com

Аннотация: В этой статье мы не ошибемся, если покажем любовь к делу наших людей, необходимость ответственно ко всему подходить и их готовность действовать сообща даже в трудную минуту, даже героическую самоотверженность на примере старушек. Через образ стариков показано, что если человек чего-то хочет, или действует по отношению к этому ответственно, он получит награду в соответствии со своим трудом. На самом деле, о том, что в погоне за упорным трудом, прогрессивностью и требованиями можно добиться большого героязма,

свидетельствуют достижения стариков в результате их трудов и «телефонный разговор» председателя в Ташкент

Ключевые слова: Старухи, Шелкопряд, Председатель, Хлопок, Война, Брак, Труд, Звено, Героизм, Преданность, Женищины.

THE LEVEL OF SELFLESSNESS AND HEROISM OF THE OLD WOMEN IN THE STORY "THE OLD WOMEN STUCK A WIRE"

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

Student majoring in Uzbek language and literature at Nukus State Pedagogical Institute.

pardaboyevaadiba@gmail.com

Abstract: In this article, we will not be mistaken if we show the love of our people's work, the need to responsibly approach everything and their willingness to act together even in difficult times, even heroic selflessness in the example of old women. It is shown through the image of old men that if a person wants something, or acts responsibly towards it, he will receive a reward according to his labor. In fact, the fact that a lot of heroism can be achieved in the pursuit of hard work, progressiveness and demands, is shown by the achievements of the old men in the wake of their labors and by the "telephone" of the chairman to Tashkent

Keywords: Old Women, Silkworm, Chairman, Cotton, War, Marriage, Labor, Heroism, Dedication, Women.

KIRISH

“Kampirlar sim qoqdi” hikoyasi Abdulla Qahhor qalamiga tegishli bo‘lib, bu hikoyada xalqimizning mehnatga bo‘lgan muhabbatni, har bir ishda ma‘suliyat bilan yondashmoqlik kerakligi hamda og‘ir kunlarda ham birgalikda harakat qilishga tayyorligi, hatto kampirlar misolida qahramonlik darajasidagi fidoyilikni ko‘rsatib bergen desak adashmaymiz. Inson nimadirni hohlasa, yoki unga tomon ma‘suliyat bilan yondashib, harakat qilsa, albatta mehnatiga yarasha javob olishi hikoyadagi kampirlar obrazi orqali ko‘rsatib berilgan. Aslida, mehnat qilmoqlik yosh tanlamasligi, ilg‘orlik va talabchanlik ortidan juda ko‘p qahramonliklarga erishish mumkinligi kampirlarning mehnatlari ortidan eshitgan yutuqlari va raisning Toshkentga “sim qoqish”i orqali ko‘rsatib berilgan.

“Kampirlar sim qoqdi” – oddiy ko‘rinadigan, ammo mazmunan juda boy, g‘oya va obrazlarga to‘la asardir. U xalqimizning mehnatga bo‘lgan muhabbati, og‘ir kunlarda ham birlikda harakat qilishga tayyorligi, hatto kampirlar misolida qahramonlik darajasidagi fidoyilikni ko‘rsatadi. Hikoya ikkinchi jahon urushi yillari qishloq hayotini yoritadi. Mardlar urushda, qolgan ayollar va kampirlar esa butun xo‘jalikni yelkasida ko‘taradi. Ayollar aslida uy yumushlarini qilish o‘rniga erkaklar yo‘qligi sababli, erkaklarga xos bo‘lgan ba’zi ishlarga chaqiriladi.

Rais paxta uchun ishchi kuchini bo‘shatish kerakligi sababli kampirlardan pilla boqishni so‘raydi. Dastlab bu masala rasmiy tarzda aytilgach, kampirlar hayajonga tushadi, lekin keyin xotirjamlik bilan masalani muhokama qilishadi. O‘sha paytda kampirlar fikri so‘ralganda, To‘xta xolaning ilg‘orlik bilan “- endi o‘g‘lim, dabdurustdan majlis deding... asli shu gapni avval o‘zaro jo‘n gaplashib, pishitib olsag-u keyin majlisga solsang bo‘lar edi” deyishi ham o‘z fikrini qo‘rmasdan aytganligi va maslahat qilish kerakligi hamda agarda unga shu ish yuklatilsa, majburiyatni bajara oladimi yo‘qmi avvaldan o‘ylantirayotganligi uchun so‘raydi. Avvaliga bitta quti qurt olishmoqchi bo‘lishadi, lekin asta-sekin g‘ayratlari ortib, to‘rt qutiga yetishadi va birinchi bo‘lib pilla topshirib, raisni Toshkentga “sim qoqishga” majbur qilishadi. Natijada ular radio orqali butun respublikaga maqtaladi. Hikoyada keltirilgan personajlar tahlili ham xilma-xil.

Har bir obraz kitobxonni maqsadidan hechqachon qaytmaslik, ahd bilan kirishilgan ishlar, o‘ziga bo‘lgan ishonch tuyg‘ularining shakllanishida ham muhim omil bo‘lib hizmat qiladi. Masalan, voqealar boshlanishida avval majlisni boshlash emas, maslahat qilish kerakligini taklif qilgan To‘xtabuvi Sarimsoqovani olamiz. To‘xtabuvi bu yetakchi va eng tashabbuskor obraz. Negaki, qarigan bo‘lishiga qaramasdan faollik va ijtimoiy ma‘suliyat tuyg‘usi juda kuchli ayol. Rais bilan murosani ham, qarorni ham bilgan holda yo‘naltira oladi. Kechasi ko‘ziga uyqu kelmasdan uyma-uy yurib, avval Nazirbuvining uyiga, undan keyin Shahodatbuvi, Roziyabuvi hamda Ortijonnikiga borishi va ularning javoblari kampirni fikridan qaytarmasdan, aksincha, g‘ayratini orttirganini ko‘rishimiz mumkin. Uning liderlik qobiliyati kampirlar orasida tabiiy yetakchilikni ko‘rsatadi. Raisni hazil va ixtiyoriy “murosa” bilan ham yengadi.

Ikkinci obrazimiz Nazirbuvi . Ushbu obraz dastlab sandal tepasida uxlab yotgan “oddiy kampir” obrazida keltirilgan. Yozuvchi tomonidan kampirning holati juda chiroqli o‘xshatishl;ar bilan tasvirlangan. Masalan, “sho‘rvada

pishgan olmadek” yuzini tovlashi, “to‘yan qo‘zichoqday uxbab” yotishi , “pashsha qo‘rqanday” lunjini qimirlatishi. To‘xtabuvi uning uyiga brogan paytda juda muhim fikr bildiradi, ya‘ni, “Nima qipti, ikki quti tutamiz desak?”. Ushbu gaplar o‘ziga bo‘lgan ishonchning balandligi va To‘xtabuviga bo‘lgan ga’ayratini ham oshirib yuboradi. U kampirlar zvenosining e’tiborsiz kampirdan – harakatga undovchi kuchga aylanganini ko‘rsatadi.

Shahodatbuvi, Roziyabuvi va Orifjon obrazlari avval sustkash, lekin birdaniga uyma-uy yurilgan suhbatlar, ijtimoiy majburiyat va ichki g‘urur sabab harakatga keladi. Ayniqsa Ortijon “uch quti” degani bilan avvalgi sustlikni yengib, liderlikka hissa qo‘sadi. Roziyabuvi esa ilk bo‘lib, raisning “qurt ishida nima qilasizlar” degan gapiga javoban, kuchli javob qaytaradi. Raisning ksmpirlarga ishonmasdan, ularni “Bitta shaftoliga tishlariningiz o‘tmaydi” deb masxara qilishini, tom ma‘noda kampirlar bir quti emas, to‘rt quti ipak qurtiga ham kuchlari yetishi mumkinligini ko‘rsatib qo‘yishadi. Kampirlar mehnatining natijasini ko‘rib, tan oladi va o‘zi “sim qoqishga” majbur bo‘ladi. Bu raisning xalq g‘ayratiga, xususan, ayollarga bo‘lgan hurmatining shakllanishini anglatadi. Hikoya voqealarida hech kim “belim og‘riydi” demaydi – bu mehnatga hurmat va shon-sharfning belgisini oshib bergen. Qurt kattalashgan sari kampirlarning ishtiyoqi ham oshadi. Bu mehnatning psixologik mukofoti – odamning o‘z ishidan g‘ururlanish hissidir. Asarda keltirgan obrazlarning ba‘zilari simvolik ma‘nolarni ham ifodalab kelgan deb o‘layman:

- **Qurt – mehnat va fidoyilik timsoli.** Bu oddiy, lekin ko‘p vaqt, sabr, sadoqat talab qiluvchi jarayon. Har bir kampir unga ko‘zidek qaraydi.
- **Sim qoqish – xalq g‘ururi.** Kampirlar qishloq darajasida emas, respublika darajasida e’tirof etilishi orzusi bilan yashaydi.
- **Qo‘y – mukofot, ammo ramziy jihatdan –adolat.** Ular arzimas deb hisoblangan kampirlar emasligini isbotlab, o‘z haqini olishadi.

Hikoyadan xulosa qilishimiz mumkinki, Abdulla Qahhor qalamiga mansub ushbu hikoya haqiqiy o‘zbek xalqining ikkinchi jahon urushidagi turmush holatlarini oshib bergen. Bu hikoya o‘zbek adabiyotida **xalq kuchi, ayollar quadrati va ijtimoiy birdamlikni** tasvirlaydigan yorqin namunalardan biridir. U xotirjamlik, hazil aralash suhbatlar fonida boshlangan, ammo oxir-oqibat tarixga iz qoldiradigan darajadagi harakatga aylangan kampirlar zvenosining epik hikoyasidir. Nafaqat hikoya, balki turmushda, umuman olganda o‘z oldingizga maqsad qo‘ydingizmi shu maqsadlar yo‘lida tinimsiz harakat va qiyinchiliklarda ham o‘z maqsad va ahdingizga sodiq bo‘lib harakat qilishingiz sizni hamisha g’alaba sari yetaklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor, Anor (hikoyalar va qissalar). G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent –2012.
2. Abdurahmonova Mavluda Ibragimovna, Abdulla Qahhor hikoyalarida tasviriy ifodalar.
3. E.Xudoyberdiyev “Adabiyotshunoslikka kirish”
4. H. Umurov “Adabiyor nazariyasi” Toshkent, “Merius” 2004